

XITOIY TILIDAGI “显得”, “显示”, “显” SO‘ZLARINING SEMANTIK VA SINTAKTIK TAHLILI

Mamatova Dilshoda Mashrab qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xitoy filologiyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD
E-mail: mamatovadilmamatova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilidagi 显 (xiǎn), 显得 (xiǎnde) va 显示 (xiǎnshì) fe’llarining leksik-semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mazkur birliklarning ma’nolari, grammatik xususiyatlari hamda nutqdagi qo‘llanish doirasi qiyosiy asosda o‘rganildi. Har bir fe’lning sintaktik vazifalari va uslubiy farqlari real misollar orqali yoritildi. Tadqiqot natijalari xitoy tilini o‘rganuvchilar uchun ushbu fe’llarni to‘g‘ri farqlash va kontekstga mos qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: 显 xiǎn, 显得 xiǎnde, 显示 xiǎnshì, sinonimiya, leksik-semantik tahlil.

Аннотация. В статье анализируются лексико-семантические и функциональные особенности глаголов 显 (xiǎn), 显得 (xiǎnde) и 显示 (xiǎnshì) в китайском языке. В ходе исследования на сопоставительной основе рассматриваются их значения, грамматические характеристики и сферы употребления в речи. Синтаксические функции и стилистические различия данных глаголов раскрываются на основе реальных примеров. Результаты исследования имеют практическую значимость для изучающих китайский язык.

Ключевые слова: 显 xiǎn, 显得 xiǎnde, 显示 xiǎnshì, синонимия, лексико-семантический анализ.

Abstract. This article analyzes the lexical-semantic and functional characteristics of the Chinese verbs 显 (xiǎn), 显得 (xiǎnde), and 显示 (xiǎnshì). The study compares their meanings, grammatical features, and usage in speech. The syntactic functions and stylistic differences of these verbs are illustrated through real examples. The findings are of practical significance for learners of Chinese.

Key words: 显 xiǎn, 显得 xiǎnde, 显示 xiǎnshì, synonymy, lexical-semantic analysis.

Xitoy tilida bir xil yoki yaqin ma’noni ifodalovchi fe’llar nutqda ko‘pincha chalkashlikka sabab bo‘ladi. Ayniqsa 显, 显得 va 显示 fe’llari “ko‘rinmoq”, “namoyon bo‘lmoq”, “ko‘rsatmoq” kabi umumiy ma’nolarni anglatsa-da, ularning grammatik xususiyatlari va qo‘llanish doirasi sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli ushbu fe’llarni qiyosiy tahlil qilish xitoy tilini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi 显, 显得 va 显示 fe’llarining semantik va funksional farqlarini aniqlash hamda ularning nutqdagi to‘g‘ri qo‘llanishini ko‘rsatishdan iborat.

显示-显得

Har ikki so‘z fe’l so‘z turkumiga oid ko‘rsatmoq, boshqalarga namoyish qilmoq ma’nolari bor, lekin odatda, almashinib qo‘llanilmaydi.

显示- ma’lum munosabat, qobiliyat va holatning namoyon bo‘lishi, ko‘rsatilishi uchun qo‘llaniladi:

相片显示：马奔跑时始终有一蹄着地。

Kadrlar shuni ko‘rsatar ediki: Ot yugurganda, oyog‘i yerda tegarkan.

Bu gapda fotograf otlar yugurganda, ularning tuyog' i yerga tegish-tegmasligini bahsiga aniqlik kiritish uchun otlar yugurganida rasimga oladi, natija shuni ko'rsatadiki, ot yugurganda, uning tuyoqlari qancha tez yugurmasin baribir yerga tegar ekan. 显示 so'zi qoidaga muvofiq holatning namoyon bo'lishini bildirib kelgan.

显得 – ma'lum turdagi o'ziga xoslikni ko'rsatishda qo'llaniladi:

几年不见，他显得成熟多了。

Bir necha yil ko'rishmadik, u ulg'ayib qolgandek ko'rindi.

Gapni tahlil qiladigan bo'lsak, bir necha yil ikki inson ko'rishmagan, ko'rishganida ikkinchi odam ulg'ayib qolgandek ko'ringan, 显示 fe'li o'ziga xos ulg'aydek tuyulmoq ma'nosini anglatib kelmoqda.

显示 - odatda, ot va sodda gaplar bilan birikma hosil qila oladi:

这次活动的组织显示出了他的才能。

Bu tadbirni tashkil qilinishi uning qobiliyati ko'rsatib bera oldi.

Inson qobiliyati, nimaga qodirligini namoyon qilishda bu gapda 显示 fe'li ishlatilgan. Ya'ni tadbirning tashkil qilinishi tadbir tashkilotchining yuqori qobiliyatga egaligini ko'rsatib bermoqda.

显得 – odatda, sifat so'z turkumiga oid so'zlar bilan qo'llaniladi.

中秋节那天，月亮显得格外明亮。 [HSK 5, 84-85]

O'rta kuz bayrami kuni Oy o'zgacha yorqin ko'rindi.

Bu gapda 显示 ko'rinmoq fe'li 明亮 yorqin sifati bilan qo'llanilib kelgan. Yuqorida keltirilgan qoidaga mos kelmoqda.

显/显得/显示

显 - yaqqol ko'rinmoq, ochiq-oydin bo'lmoq, aniq-ravshan bo'lmoq, shubhasiz bo'lmoq. Tashqaridan yaqqol ko'rinadigan holatlarda qo'llaniladi. Birinchi ma'noda yaqqol ko'rinib turmoq ma'nosini anglatadi:

显而易见，脸上的白点儿下去了，不显了。

Uning yuzidagi oq dog'lar kamayganligini shubhasiz ko'rinib turibdi.

Ikkinchi ma'noda: namoyish qilmoq ma'nosini anglatadi; ko'rinib qolish ma'nosini ham anglatadi:

各显本领。Har kim o'z qobiliyatini namoyon qildi.

显得：ko'rinmoq, tuyulmoq, paydo bo'lmoq (ma'lum bir holatning, muayyan vaziyat):

面试时她显得有点儿紧张。

Suhbatda u biroz hayajonlangandek ko'rindi.

显示: ko'rsatmoq, namoyon bo'lmoq, yaqqol ko'rinmoq ma'nolarini anglatib keladi, gapda yaqqol namoyon bo'lmoq, aniq-ravshan ifodalamoq, ochiq-oydin ko'rinmoq, deb tarjima qilinadi:

她在这个电视剧里的表演显示了扎实的艺术功力。Uning bu serialdagi roli kuchli mahurat sohibasi ekanligini ko'rsatdi.

Quyidagi jadvalda “显”，“显得”，“显示” so'zlarining qaysi so'zlar birikma hosil qila olishi, qaysi so'zlar bilan kelmasligi berilgan:

	不~	~而易见	~更加美丽	~很大气	~威力	~才能	~出来	~器
显	√	√	×	×	√	√	√	√
显得	×	×	√	√	×	×	×	×

显示	√	×	×	×	√	√	√	√
----	---	---	---	---	---	---	---	---

“显” hamda “显示” so‘zlarining to‘ldiruvchisi ot so‘z turkumiga oid so‘zlar bo‘lsa, “显示” so‘zining to‘ldiruvchisi sifat bo‘ladi:

1. 一个十七岁的中学生能写出这样一本小说来，显示出了他非凡的文学才能。

O‘n yeti yoshli o‘rta maktab o‘quvchisi bunday roman yozishi uning favquloqda adabiy qobiliyatini namoyon qildi. Ushbu gapda 显示so‘zi natijani ochiq ko‘rsatish, dalil sifatida namoyish qilish ma‘nosida ishlatilgan.

2. 你穿上这条裙子显得更漂亮了。

Bu yubkani kiyganingga yanada chiroyliroq ko‘rindi.

Ikkinchi jumlada biz shuni ko‘rishimiz mumkinki, 显得so‘zi tashqi baho, ko‘ruvchi shaxsning fikrini bildirishda qo‘llanilgan.

3. 近年来中国经济显示了强劲的增长势头。

So‘nggi yillarda Xitoy iqtisodiyoti kuchli sur‘atda o‘sganligini ko‘rsatmoqda.

显示leksemasi ushbu gapda faktlarga asoslangan dalil, statistik natijani ifodalashda qo‘llanilgan.

4. 节日的天安门显得更加壮丽。

Tiananmen maydoni bayramda yanada chiroyli ko‘rinmoqda.

Bu jumlada 显得 fe‘li joyning qay holatda ekanligini, vizual holatini ifodalab kelgan.

5. 把这张桌子放在这里，房间显得非常拥挤。

Bu stolni bu yerga qo‘yilishi xonani juda tor qilib ko‘rsatmoqda.

Ushbu gapda esa xonaning real emas balki qanday ko‘rinayotganligi ifodalashda 显得 leksemasi qo‘llanilgan.

“显” yolg‘iz o‘zi qo‘llanilib, gapda kesim vazifasini bajara oladi, “显示” va “显得” bunday xususiyatga ega emas.

6. 这个疤不显，不仔细看根本看不出来。 [1700 词，1246 bet]

Bu chandiq bilinmaydi, diqqat bilan qaramasang, ko‘rinmaydi ham.

Gapda “显” “chandiqning bilinmas”ligini anglatib, kesim vazifasini bajarib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, 显 fe‘li asosan holatning yaqqol ko‘rinishini ifodalab, mustaqil ravishda kesim vazifasida kelishi mumkin. 显得 fe‘li esa subyektning ma‘lum bir sifatga ega bo‘lib ko‘rinishini bildiradi va odatda sifatlar bilan qo‘llaniladi. 显示 fe‘li esa ko‘rsatmoq, namoyon qilmoq ma‘nosida kelib, ko‘pincha ot yoki gap bo‘laklari bilan birikadi. Ushbu fe‘llarni to‘g‘ri farqlash xitoy tilida nutqning aniqligi va tabiiyligini ta‘minlaydi hamda til o‘rganuvchilar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 杨雪梅《汉语近义词辨析》，北京语言大学出版社，2011. 293 页。

2. 杨寄洲、贾永芬《1700 对近义词语用法对比》，北京语言大学出版社，2009. 1641 页。

3. “汉语近义词学习手册” 牟淑媛 王硕。-北京：北京出版社，2004.5 216 页。

4. “汉语近义词典”：汉英双解/ 王还。-北京：北京语言大学出版社，2005. 508

页

5. Ван Шо, Моу Шуюань Синонимы китайского языка. Справочник / Пер. с кит. А. Сулеймановой. — М.: ООО Международная издательская компания «Шанс», 2019. — 207 с. — (Справочники по китайскому языку).
6. 姜丽萍 《HSK标准教程 5上》北京语言大学出版社, 2014. 183 页。
7. 姜丽萍 《HSK标准教程 6 上》北京语言大学出版社, 2014. 232 页。
8. Sultonova L.A. “Xitoy tili leksikologiyasi”, T-2015., 170 b.
9. Gorelov V.I. Leksikologiya sovremennogo kitayskogo yazika- M.,1984.- C.122
10. <https://jinyifanyi.bmcx.com/>
11. https://jinyifanyi.bmcx.com/%E5%A6%82%E4%BD%95__jinyifanyi/